



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA AXLOQIY TARBIYANING TUTGAN O'RNI VA VAZIFALARI

Andijon davlat pedagogika instituti  
maktabgacha ta'lim fakulteti  
1-bosqich 101-guruh talabasi

Allayarova Mashhura Qamaraddin qizi

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15231650>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning ahamiyati, vazifalari va amalga oshirish usullari haqida qisqacha ma'lumot beradi.

**Kalit so'zlar:** Axloqiy tarbiya, axloqiy tarbiyaning asosiy vazifasi, axloqiy tarbiyaning amalga oshirilish yo'llari, maktabgacha yoshdagi bolalar, axloqiy onglik, axloqiy qadriyatlar, axloqiy his.

Maktabgacha yoshdagi bolalar – inson hayotidagi eng muhim davr bo'lib, bu davrda bola hayoti va faoliyatida axloqiy qadriyatlar asosini tashkil etuvchi ko'plab omillar shakllanadi. Maktabgacha yoshda tarbiya ko'p jihatdan bolaning shaxsiyati, ijtimoiy mas'uliyatini, axloqiy qarashlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Shu bois, axloqiy tarbiya mazkur yosh guruhidagi bolalar uchun ayniqsa muhimdir. Axloqiy bilim berish bir qancha tarbiyaviy vazifalarni bajaradi, inson hayoti va madaniyatining axloqiy qadriyatlari to'g'risida keng tasavvur tushunchalar beradi. Axloqiy tasavvurlar, qarash, mulohaza, baho berish kabi tushunchalarni shakllantirishga va shu asosda axloqiy e'tiqodni yuksaltirishga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni: bolalarni o'zlarining axloqiy tajribalarini mushohada qilishlari va boyitishlariga yordam beradi. Shaxsni o'zini axloqiy tarbiyalashga zamin yaratadi. Axloqiy bilim, asosan axloqiy suhbatlar, ma'ruzalar, kechalar, turli kasb egalari bilan uchrashuvlar va boshqa vositalar bilan amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida axloqiy tarbiya berish har xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Birinchi galda bolalarni har xil faoliyatlar vositasida kattalar mehnati bilan tanishtirish, mashg'ulotlarda va mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda, ta'lim berish orqali amalga oshiriladi. Har xil bayramlar, ijtimoiy hayot voqealari, bolalar adabiyoti, musiqa, o'yin materiallari, ommaviy axborot vositalari, oynai jahon, radio va boshqalar bolalarning axloqiy tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik yoshli bolalar axloqiy tasavvur va bilimlarni faqat o'yin mashg'ulotlarida yaxshi o'zlashtirib oladilar. Bolalar tomonidan o'zlashtirib olingan axloqiy tasavvurlarni ular ongli ravishda tushunib yetishlari dastlab mashg'ulotlarda, keyinchalik o'yin, mehnat jarayonlarida, sayrda, musatqil faoliyatlar orqali amalga oshiriladi.

Axloqiy tarbiya tushunchasi.

Axloqiy tarbiya – bu bolalarda ijtimoiy qoidalarga, odob-axloq normalariga, xalqqa va jamiyatga xos qadriyatlar tizimini shakllantirish jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan elementlar quyidagilardir: Jamiyatda qabul qilingan me'yorlar, odob-axloq qoidalari, inson huquqlari, adolat, halollik, o'zaro hurmat va mehr-oqibat. Axloq so'zi – lotincha «moros», ya'ni moral, mantiq so'zidan kelib chiqib, u hech qayerda qat'iy yozib qo'yilmagan ijtimoiy qonundir. Inson kundalik hayotida undan (axloq normalaridan) norma sifatida foydalanadi. Axloqiy tarbiya normalari har bir jamiyatning huquqiy normalariga asos bo'ladi. Axloqiy tarbiyada kishi axloqiy bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, har qanday vaziyatlarda o'zini ana shu normalarga munosib tuta oladigan kishilar axloqiy tarbiyalangan hisoblanadi. Axloqiy tarbiyalangan kishida barqaror ma'naviy motivlar shakllangan bo'ladi. Bu motivlar esa o'sha kishini jamiyatda munosib xulq-atvoriga rag'batlantiradi. Yosh avlodni jamiyatga, mehnatga, o'ziga munosabatni ochib beruvchi ma'naviy fazilatlariga muvofiq ravishda tarbiyalash tarbiyalanuvchi shaxsni, axloqiy tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini chuqur bilishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Axloqiy bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirib olishgina o'quvchilarga atrofda kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi. Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib,



muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo'lgan ma'lum xatti-harakat qoidalari yig'indisidir. Axloq odamlarning bir-biriga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga munosabatini muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon bo'ladi. Axloq - kishining ichki olami, e'tiqodi, fazilatlarini sifatida mavjud bo'lsa, odob – shaxsning ko'zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala-munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Axloqiy tushunchalarning turli yosh davrlarida shakllanish darajasi.

Axloqiy onglilik

Axloqiy qadriyatlar

Axloqiy his

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning o'rni haqida tushuncha.

Maktabgacha yoshdagi bola o'zining atrofidagi dunyoni o'rganishda, boshqa bolalar bilan munosabatlarda, kattalar bilan interaktsiyalarda axloqiy tushunchalarni anglashni boshlaydi. Ular o'rganadigan asosiy qadriyatlar quyidagilar:

- Insoniylik va mehr-oqibat: bola mehr va mehribonlikni o'rganishda, o'zida ham mehr va g'amxo'rlik ko'rsatish hissi kuchayadi. Bu uning kelajakda boshqalar bilan o'zaro muloqotida ijobiy natijalar keltiradi. O'zaro hurmat va hamjihatlik: bola guruhda o'ynaganda, uni tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarida hurmatga sazovor bo'lishni, hamjihat bo'lishni o'rganadi. Halollik va adolat: bola hayotida adolatli bo'lishni, o'z huquqlari va boshqalarning huquqlarini hurmat qilishni o'rganadi. Bu unga muomala qilishda adolatli bo'lishni o'rgatadi.

Axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilar.

1. Shaxsiyatni rivojlantirish: Axloqiy tarbiya bolaning shaxsiy fazilatlarini – o'zini hurmat qilish, boshqalarni qadrlash, yordamga muhtojlarni qo'llab-quvvatlashni rivojlantiradi.

2. Jamiyatda o'z o'rnini topish: Maktabgacha yoshda bola, jamiyatda o'z o'rnini topishni, uning umumiy maqsadlariga xizmat qilishni o'rganadi.

3. O'z xatti-harakatlarini boshqarish: axloqiy tarbiya bola xatti-harakatini boshqarishni, o'zini boshqalar o'rnida qo'yishni o'rganishga yordam beradi.

4. Boshqalarga nisbatan hurmatni rivojlantirish: Bola boshqalarning his-tuyg'ularini anglashni, ularning shaxsiy chegaralarini hurmat qilishni o'rganadi.

Maktabgacha talim tashkilotlarida axloqiy tarbiyani amalga oshirishda bazi o'yinlar yani, o'in yordamida bolalar axloqiy qoidalarni o'rganadilar va ularni amaliyotda qo'llashni boshlaydilar.

Adabiyotlar:

-maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yozilgan she'rlar, ertaklar va hikoyalar orqali axloqiy qadriyatlar

-odamlar o'rtasidagi munosabatlar va hayotdagi to'g'ri yo'l haqida tushunchalar shakllantiriladi.

Rasm va qo'shiq: Bolalar axloqiy mavzudagi rasm va qo'shiqlarni tinglab, o'zlarining fikrlarini ifoda etishadi. Kattalar, ayniqsa ota-onalar va tarbiyachilar bolaga o'z faoliyatida va munosabatlarida axloqiy normalarni namoyish etib, bola uchun yaxshi namuna bo'lishadi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki maktabgacha yoshdagi bolalar uchun axloqiy tarbiya jamiyatda fuqarolarni tarbiyalashning poydevori bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayon bolalarda ijtimoiy va axloqiy qoidalarni o'zlashtirishga boshqalar bilan muomila qilishda adolatli, mehribon va hurmatli bo'lishga yordam beradi. Shu sababli axloqiy tarbiyaning bolalar hayotidagi o'rni nihoyatda katta va uning dolzarbligi doimiy ravishda oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asaridagi quyidagi fikrlarini eslashni joiz deb bildik: «Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning shakllanishiga bevosita ta'sir etadigan yana bir muhim hayotiy omil bu ta'lim va tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir». Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti deb bilganlar. Albatta, ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini boyitadigan eng muhim omildir.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. **Islomov, R.** (2018). Axloqiy tarbiyaning bolalar tarbiyasidagi o‘rni. Tashkent:
2. **Rustamova, S .** (2018). Mantiqiy tafakkur va ijodkorlikni rivojlantirish.
3. **Omonov, A. (2010).** Tarbiyaviy faoliyat va uning nazariyasi.  
Toshkent: Fan.
4. **Shodmonova, F.** (2012). Maktabgacha yoshdagi bolalarga axloqiy tarbiya berishning usullari. Toshkent: Sharq.
5. **I.A.Karimovning** «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch»
6. **Mirzayev, O. K.** (2024). HISTORICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF ELEMENTARY ENTREPRENEURIAL SKILLS OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(02), 167-171.
7. **Xusanovich, M. O.** (2021). Formation Of Elements Of Entrepreneurial Activity In Pupils Of The Preschool Educational Organization. JournalNX, 1, 265.
8. **Mirzaev, O.** (2022). The role of ethics and aesthetics in the formation of entrepreneurial relations between individuals. Science and innovation,1(B6), 125-130